

INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi¹

Xalqaro Nordik Universiteti o'qituvchisi

Pirmuhammedova Risolat Qahramonovna²

Xalqaro Nordik Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola oliy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida talabalarda ijodiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Ijodiy kompetensiyani mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda rivojlanish bosqichlari nazriy va amaliy jihatdan yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalarining talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishdagi o'рни asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni tizimli joriy etish talabalarning mustqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish qobiliyatini rivojlantirish hamda yangillikga intilish va ularni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

KALIT SO'ZLAR: Innovatsion yondashuv, ijodiy kompetensiya, kreativlik, oliy ta'lim, talaba, pedagogik texnologiya, ijodiy fikrlash.

ANNOTATION: This article analyzes the issues of forming and developing students' creative competence in the higher education system based on innovative approaches. The essence of creative competence, its structural components, and stages of development are presented from both theoretical and practical perspectives. In addition, the role of modern pedagogical technologies, interactive methods, and digital learning tools in enhancing students' creative potential is substantiated. The research findings indicate that the systematic implementation of innovative approaches in the educational process contributes to the development of students' independent thinking,

their ability to find creative solutions to problem situations, as well as their inclination toward innovation and their capacity to analyze it.

KEY WORDS: Innovative approach, creative competence, creativity, higher education, student, pedagogical technology, creative thinking.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются вопросы формирования и развития творческой компетентности студентов в системе высшего образования на основе инновационных подходов. С теоретической и практической точек зрения раскрываются сущность творческой компетентности, её структурные компоненты и этапы развития. Также обосновывается роль современных педагогических технологий, интерактивных методов и цифровых образовательных средств в повышении творческого потенциала студентов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что системное внедрение инновационных подходов в образовательный процесс способствует развитию самостоятельного мышления студентов, их способности находить креативные решения проблемных ситуаций, а также стремления к новаторству и умений его анализа.

Ключевые слова: Инновационный подход, творческая компетентность, креативность, высшее образование, студент, педагогическая технология, творческое мышление.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyat raqobatdosh mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor va innovatsion yondashuvga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni taqazo etadi. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ularning ijodiy kopetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim jarayonida talabalarda ijodiy kopetensiyani rivojlantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda. Ijodiy kompetensiya shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay olish, muamolarga yangicha yechim topish, tashabbuskorlik

va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Uni rivojlantirish esa an'anaviy ta'lim usullari bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikaining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim oluvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarda ijodiy kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish dolbzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Asosiy qism: Innovatsion yondashuv – bu ta'lim jarayonini yangicha g'oya, texnologiya va metodlar asosida tashkil etish bo'lib u ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion ta'lim an'anaviy o'qitishdan farqli ravshda talabaning faolligi, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bunday yondashuvlar talabaning faolligini oshiradi, va uni ta'lim jarayoning passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantiradi.

Innovatsion yondashuvlar quyidagilrni o'z ichiga oladi:

- ✧ Muammoli ta'lim (o'ylash, izlash, o'zgacha yechim topish orqali ta'lim)
- ✧ Loyiha asosida o'qitish; (amaliy ishlar va taqdimotlar)
- ✧ Interfaol metodlardan foydalanish; (klaster, aqliy hujum, debatlar)
- ✧ Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish;(ta'limni individualizatsiyalash va moslashuvchan qilish)
- ✧ Integratif va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv; (ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirish)

Ushbu yondashuvlar talabalarning mustaqil fikirlashi va ijodiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning o'z bilimi va tajribasiga tayangan holda yangi go'yalar yaratish mavjud muammolarga samarali va noodatiy yechimlar taklif etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini integrativ sifatidir. Ijodiy kompoensiya bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy motivatsiyaning uyg'unligi sifatida talqin etladi.

Pedagogik nuqtai nazardan ijodiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ❖ Motivatsion komponent -Talabaning yangilikga bo'lgan intilishi, izlanishi va o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojining mavjudligi.
- ❖ Kognitiv komponent – Yangi bilimlarni qabul qilish tizimi va ularni qabul qilish qobiliyatining mavjudligi.
- ❖ Faoliyat komponent – Amaliy faoliyatda kreativ yondashuvni qo'llay olish qobiliyati.
- ❖ Refleksiv komponent – O'z faoliyatini baholash va takomillashtirish ko'nikmasi.

Mazkur komponentlarning uyg'unlikda rivojlantirish talabaning ijodiy kompetensiyasini yuqori darajaga olib chiqadi. Shuningdek Pedagogik faoliyatda ijodiy kopetensiya o'qtuvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan birdir. Talaba ushbu kompetensiyani shakllantirishi kelgusida uning innovatsion faoliyat olib borishiga zamin yaratadi.

Talabalarda ijodiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni izchil va bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Motivatsion tayyorgarlik bosqichi:

Bu bosqichda talabalarda ijodiy faoliyatga qiziqish uyg'otiladi. O'qtuvchi innovatsion metodlar orqali talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularning ichki motivatsiyasini shakllantiradi.

2. Bilimlarni egallash va tushunish bosqichi:

Mazkur bosqichda talaba kreativ fikrlash asoslari, muammolarni tahlil qilish usullari o'rgatiladi. Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulot bilan uyg'unlashtiriladi.

3. Amaliy-ijodiy faoliyat bosqichi:

Talabalar loyiha ishlari tadqiqot topshiriqlari va ijodiy vazifalar orqali o'z bilimlarini amalda qo'llay boshlaydilar. Bu bosqich ijodiy kompetensiyaning faol shakllanishi davri hisoblanadi.

4. Refleksiya va baholash bosqichi:

Talaba o'z faoliyatini tahlil qiladi, erishgan natijalarini baholaydi va xatolar ustida ishlardi. Refleksiya ijodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

5. Musatqil ijodiy rivojlanish bosqichi

So'nggi bosqichda talaba mustaqil ravshda ijodiy faoliyat olib borishga qodir bo'ladi. U yangi g'oyalar yaratadi va o'zini doimiy rivojlantirishga intiladi.

Innovatsion yondashuvlar asosida talabalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biridir. Ijodiy kompetensiyaning bosqichma-bosqich rivojlantirish talabani shaxs sifatida kamol topishiga kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga zamin yaratadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun: loyiha asosida o'qitish talabalarda mas'uliyat, tashabbuskorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar esa ta'lim jarayonini individuallashtirish va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabani ijodiy faolligini oshiradi. Vgotskiyning yaqinrivojlanish zonasi nazariyasiga ko'ra, talaba hamkorlik va qo'llab quvvatlash orqali yuqori natijaga erishadi. Shu sababli interfaol metodlar va jamoaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish tizimli va maqsadli jarayon bo'lishi lozim. Innovatsion yondashuvlar xususan integratsiyalashgan muammoli, loyiha asosidagi va interfaoli metodlar, talabani faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Epmik tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, tajriba guruhi talabalarni innovatsion metodlar yordamida ijodiy kompetensiyani barcha tarkibiy qismlarida - motivatsion, kognitiv, faoliyat va refleksiv komponentlarida – sezilarli o'sishga erishadilar. Ular yangi g'oya yaratish usullarini topish va amaliy topshiriqlarni muvaffaqiyatli

bajarish rivojlantiradilar. Nazorat guruhi esa an'anaviy metodlar bilan ta'lim olganligi sababli ijodiy tafakkur rivojlanishi nisbatan sustroq bo'ladi.

Shuningdek, interfaol metodlar, jamoviy ishlar va raqamli platformalar talabalarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qilishi, ularni ta'lim jarayoning faol subyektiga aylantirishi aniqlanib Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi bilan hamkorlikda ekanligi tasdiqlandi. Loyiha asosida o'qitish talabalarda ma'suliyat tashabbuskorlik jamoviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi, raqamli texnologiyalar esa ta'limni individualizatsiya qilish va moslashuvchan qilish inkonini beradi. Shu bois talabalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat ilmiy va amaliy jihatdan zarur balki kelajakda ular raqobatdosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda innovatsion yondashuvlar talabaning faolligini oshiradi va ularni bilim oluvchidan bilim yaratuvchi subyektga aylantiradi shuningdek shaxs sifatida kamol topishi va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikaining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent 2020

2. Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi - INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI- 2025

<https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/3849>

3. Saidahmedov N. S Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim. – Toshkent, 2018.

<https://worldlyjournals.com/index.php/ztdq/article/view/20728>

4. Gulmira Rifvona Tojiboeva PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT 2020

<file:///C:/Users/user/Downloads/pedagogik-kompetentlik-nazariya-va-amaliyot.pdf>

5. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. “Kasbiy kompetentlik” (darslik) / Toshkent-2022.

<https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/20056>

6. LEV SEMENOVICH VYGOTSKY Imagination and Creativity in Childhood

<https://www.marxists.org/archive/vygotsky/works/1927/imagination.pdf>